



“BOBURNOMA”DA BIOXILMA-XILLIK VA UNING EKOLOGIK TARBIYADAGI ROLI

Maxmudova Xurshida Irgashevna

Biologiya fan nomzodi, dotsent

Unarova Hafiza Abdumannonovna

Samarqand Davlat Tibbiyot instituti akademik litseyi Ona tili va
adabiyot fani o'qituvchisi

Mamatqulova Bo'ston Aminovna

Samarqand Davlat Tibbiyot instituti akademik
litseyi biologiya fani o'qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10720066>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 20-February 2024 yil

Ma'qullandi: 24- February 2024 yil

Nashr qilindi: 28- February 2024 yil

KEY WORDS

“Boburnoma”, *bioxilmaxillik*,
“dona kalon”, *Xo'jand*, “*subhoni*”

ABSTRACT

Ushbu maqolada Zahiriddin Muhammad Boburning “Boburnoma” asarida bioxilmaxillikning yoritilishi haqida so'z boradi. Unda 1494-yildan 1530-yilgacha O'rta Osiyo, Afg'oniston va Hindistonda kechgan voqealar bayon etilgan. Bobur tarixiy faktlarni Shunchaki qayd etish, jangu jadallar, yurishlar haqida xronologik axborot berish bilangina kifoyalanmay, voqealarni jonli tilda qiziqarli hikoya qilad, manzara chizadi, tabiatni, etnografik xolatlarni tasvirlaydi, davrni, uning xususiyatlarini gavdalantiradi. Shu sababdan asar faqat ilmiy – tarixiy ahamiyati bilaan emas, balki o'zbek badiiy nasrining yorqin namunalaridan biri sifatida ham biz uchun qimmatlidir.

“Boburnoma” XVI asrning birinchi choragidagi yagona o'zbek badiiy adabiyoti yodgorligi bo'lib, XV asr oxiri va XVI asr boshlaridagi O'rta Osiyo, Afg'oniston va Hindiston xalqlari hayoti va shu hudud tabiati haqidagi bebaho tarixiy va ilmiy ma'lumotlar manbai hisoblanadi. U o'z asrining fan yutuqlarini umumlashtirgan o'ziga xos qomusiy asar bo'lishi bilan birga bu asarda shu hududda tarqalgan o'simlik va hayvon turlariga alohida ta'rif berilgan. Bobur katta badiiy mahorat bilan kitobxonlar ko'z o'ngida haqqoniy tarixiy voqealarni, tabiatning ajoyib go'zalligini batafsil, nafis va yorqin tasvirlab bergan. “Boburnoma”dagi voqealar bayoni aniq, ixcham va lo'nda, ta'sirchan, eng muhimi, hayotiy haqiqatga mos va muvofiqligi bilan e'tiborlidir. Muallif voqealar bayonida tabiat tasviriga, ayrim joylar tavsifiga, alohida kishilarning ta'riflariga jiddiy ahamiyat beradi. Asarda o'sha davr kishilarining haqqoniy, realistik tasviri berilgan.

“Boburnoma”dagi bayon tartib bilan, avvalo u yoki bu shaharning tabiiy – geografik tasviri, o'sha yerning hukmdori, uning tashqi qiyofasi, ma'naviy dunyosi, avlod – ajdodlari, ziyolilari, amir – beklari haqida ma'lumot berish yo'li bilan boradi. “Boburnoma”da Andijon, Isfara, Xo'jand, Marg'inon, Kandibodom hududlarining tabiatiga alohida to'xtalib o'tilgan bo'lib, Marg'inon anorlariga, o'riklariga berilgan ajoyib ta'vsiflarni o'qigan kitobxon shu sarxil mevalarni ko'z o'ngida tasavvur qila oladi. Buni shu jummalarda yanada yaqqol ko'rsak bo'ladi: “Bir jins anor bo'lur, “dona kalon” derlar, chuchukligida zardolu mayhushlig'idin andak

choshni bor. Samnon anorlarig'a tarjeh qilsa bo'lur. Yana bir jins o'ruk bo'lurkim, donasini olib, ichiga mag'z solib quruturlar, "subhoni" derlar. Bisyor lazizdur".

Xo'jand hamda Axi hududlarining hayvonot olamiga berilgan ta'rif "Boburnoma" chin ma'noda o'sha davr tabiati haqida ma'lumot manbai bo'la olishina yana bir bor ko'rsatadi. Tabiatning ajoyib tasviri, har bir hududdagi nabotot va hayvonot dunyosiga berilgan katta e'tibor insonni hayratga soladi. Zahiriddin Muhammad Boburni juda buyuk ensiklopedist olim, komil inson sifatida yana yangi qirralarini ko'ra boshlaymiz.

"Xo'jandning ovlog'i va qushlog'i bisyor yaxshidir. Oq kiyik, bug'u-maral, qirg'ovul va tovushqoni ko'p bo'lur. Havosi bisyor mutaaffindur, kuzlar bezgak ko'p bo'lur. Andoq rivoyat qildilarkim, chupchuq bezgak bo'lg'ondur".

Bu asar mazmunining rang barangligi, bir jahon materialni o'z ichiga olganligi, til va uslubining go'zalligi bilan har qanday kitobxon e'tiborini o'ziga tortadi. Bobur zamonidagi Movarounnahr, Xuroson, Afg'oniston, Hindiston o'lkalari ulardagi ko'plab viloyatlar, shahar va qishloqlarning tugal manzarasi yer suv va Toru cho'llari, dala dashtlari, bog'u rog'lari, ekinzorlar, ob-havosi navototi, qabila va xalqlarning urf odatlari, turmush tarsi, kiyinishi, ovqatlari, tili, shevasigacha namoyon bo'ladi. Binobarin bunday o'rinlarda Bobur nafaqat istedodli shoir va yozuvchi, ayni paytda sinchikov va bilimdon olim, jug'rof, etnograf, tabiatshunos, tilshunos, san'atshunos sifatida ham ko'rinadi. San'atkor ajib joylar tasvirida kichik tavsilotlarni ham etibordan qochirmaydi, viloyatlar, shahar, qishloqlar manzarasini gavdalantiruvchi go'zal realistik lavhalar chizadi. Andijon, Samarqand va boshqa shaharlar tasviri bunga yorqin misoldir. Bobur 1494-yil voqealarini otasining halokati va uning o'rniga o'zining taxtga o'tirishi, amakisi Sulton Ahmad Mirzo va tog'asi Mahmudjonning (qaynata kuyovning) Bobur ustiga qo'shin tortishi biroq yosh hukmdordan shikoyat yeb sulx tuzushga majbur bo'lishlarini hikoya qilishdan oldin Farg'ona bekligi va uning yetti shahrini tasvirlaydi. Viloyatning eng katta shahri va poytaxti Andijon tasviri g'oyat jonli va badiiy tasvir vositalariga boydir. Tasvirda Andijonning jug'rofiy o'rni, chegaralari, g'allasi mo'l, mevalarga boyligi, ayniqsa qovuni va uzumi yaxshi bo'lishi, qovun pishig'ida poliz boshida qovun sotish raim emasligi, shahar darvozalari, shaharga to'qqiz ariqdan suv kirib, biron yordam chiqib ketmasligi, qalaning atrofi butkul mahallalar bilan o'ralganligi, qalani muhofaza etuvchi suv to'ldirilgan aylana handak bilan mahallalar orasida keng tosh yo'l tushganligi, ov qushlari ko'p va semiz bo'lishi va hokozalar haqida juda sodda mazmunli hikoya qilinadi.

Xulosa qilib aytilganda, Qadimiy Movarounnahr va undagi xalqlar xayoti haqida jonli guvohlik beruvchi asarlar orasida "Boburnoma" alohida ajralib turadi. Ajoyib lirik shoir, o'zbek adibi Zahiriddin Muhammad Bobur tomonidan yaratilgan bu asar ijtimoiy – tarixiy, ilmiy – tabiiy va adabiy- lingvistik ma'lumotlar xazinasidir. Shoir o'z xotiralarini badiiy naql uslubda sodda va ravon bayon etadi. O'nlab tarixiy shaxslarning aniq xarakterini yaratadi. Tabiat manzaralarini suratini chizadi, kitobni har xil syujetlar, ishqiy sarguzashtlar, she'riy parchalar bilan bezaydi

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Zahiriddin Muhammad Bobur. "Boburnoma", Yulduzcha, 1990.
2. Jamolov S. Boburnoma"ning badiiy qimmatini haqida. o'z FAN, T.,1961.